

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MUSIQA KAFEDRASI**

5141000-musiqiy ta’lim yo‘nalishi

**4-kurs talabasi Do’stova Yulduz Faxriddin qizining
bakalavr darajasini olish uchun yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini
rivojlantirishda musiqa tarbiyasining roli.**

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Umurzoqov B.N.

Navoiy – 2015

MUNDARIJA

Kirish.....

I-BOB. MUSIQA VA TARBIYA

- 1.1. Musiqa fanining tarbiyaviy imkoniyatlari
- 1.2. Musiqa va milliy ma'naviyat
- 1.3. Barkamol avlod tarbiyasida musiqa madaniyati darslarining alohida imkoniyatlari

II-BOB. Yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining roli

- 2.1. Musiqa tarbiyasida badiiy ijro masalasi
- 2.2. Musiqa to'g'risida buyuk san'atshunos olimlarning bildirgan fikr - mulohazalarining yoshlar ma'naviy-madaniyatini shakllantirishda tutgan o'rni
- 2.3. O'quvchilarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirish
- 2.4. Musiqa mashg'ulotlarida o'zbek xalq cholg'ulari bilan dars o'tish uslublari

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Ilovalar.....

I-Bob.BOB. MUSIQA VA TARBIYA

1.1. Musiqa fanining tarbiyaviy imkoniyatlari

Insonning ruhiy olami, nozik his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari uning ijtimoiy faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Barkamol ruhiy ko'tarinkilik, ajib his-tuyg'ular ichki kechinmalarini mutanosiblashtirishda jozibali musiqaning sehri ta'siri beqiyos ulkandir.

Ajdodlarimiz asrlar davomida musiqaning qudratiga tahsinlar o'qiganlar, o'z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan bahramand bo'lganlar. Ezgu niyatlarini amalga oshirganlar.

Endilikda musiqaning jozibali, husnkor ko'lami, uning mavqei yanada kengaydi, jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlandi. Musiqa mamlakatimizda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil sohadir. O'quv tarbiya jarayonida musiqa yosh avlodga ahloqiy-estetik tarbiya berishning asosi bo'lib hisoblanadi; ta'lim jarayonining bir qadar jadallashuvi samaradorligi unga bog'liq.

Musiqaviy jihatdan savodga ega bo'lish o'zining aniq maqsad hamda vazifalariga ega. Buni amalga oshirishda mavjud ilmiy va uslublar muayyan yo'nalishni belgilaydi. Musiqani o'zlashtirish, tinglash, ijro etish va undan hayotda manfaatdor insoniy madaniylik bilan uyg'unlashib ketadi.

Xalqimiz yaratgan durdonalarning biri hisoblangan musiqalar har sohada, chunonchi, ta'lim-tarbiyada, mehnatda va ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Murg'ak

go`dakdan tortib to nuroniy qariyalargacha, san`at ne`matlaridan bahramand bo`ladi, ertangi kunning yanada porloq bo`lishi uchun kurashadi. Shunday ekan, musiqa ongli faoliyat, samarali mehnat, samimiy munosabat hamda mo``tadil kayfiyat garovi bo`la oladi. Musiqa kundalik hayotimizda qanchalik singib borsa, hayotimiz shunchalik zavqli va mazmunli o`tadi.

Mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi estetik tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning teng asosiy va ancha murakkab komponentlaridan biri bo`lib, u bolalarni musiqaga yaqinlashtirish, musiqa san`ati asarlarini tushunishga va ijro etishga o`rgatish ishlarini kichik yoshlardan boshlashni taqozo qiladi. estetik tarbiyalash maqsadida barcha maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda bolalarning badiiy ijodi uchun musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik bilan shug`ullanishi uchun sharoit yaratish alohida e`tiborga molik ish.

Dil mahrami bo`lmish musiqa o`qituvchilarni atrofdagi go`zal narsalarni to`g`ri idrok etishga va qadrlashga odatlantirish, yuksak estetik did bilan qurollantirish va go`zalliklarni ko`paytirish borasidagi etakchi vazifani o`taydi. Axir musiqa tilsiz falsafa deb bejiz aytilmagan. Inson qo`shiq, musiqa bilan tirik deyishgan. Bu-dono fikr. Kuy va qo`shiqdan biror daqiqa yiroq yashashni tasavvur etmoq qiyin. Qo`shiq-zavq ehtiyoji. Qo`shiq-sevgi, kayfiyat, hissiyot va qalb tili. Kuy va qo`shiqda doimo samimiyat boshlanadi. Musiqa-eng go`zal, eng oliyjanob orzu va hayotiy g`oya

hayqirig'idir. Musiqa jamiyat hayotining muhim qismidir. U inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, kishilarning ichki dunyosini aks ettirish bilan ularga bir-birlarini yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi, oliyjanob kechinmalarini vujudga keltirish bilan odamlarga alohida quvonch bag'ishlaydi va bitta maqsadga da'vat etadi.

Yer yuzida barqaror tinchlik va xalqaro do'stlik uchun kurash butun insoniyatning umumiy ishiga aylangan hozirgi kunda turli tillarda so'zlashadigan kishilarda bir xil hissiyot uyg'otadigan musiqa asarlari va qo'shiqlar yanada zarurroq bo'lib qoldi. Masalan: "Parvoz eting, kabutarlar", "Har doim bo'lsin quyosh" singari qo'shiqlar yoshlarning festivallarida, yig'ilishlarida qayta-qayta yangrab, ularni tinchlik va do'stlikni mustahkamlashga da'vat etmoqda.

Musiqa bolalar va yoshlarning baynalminal ruhida tarbiyalashning g'oyat ta'sirchan va samarali vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga egadir. Mashhur rus bastakori D.B.Kabalevskiy Amerikalik E.Sigmestrning Moskvada nashr qilingan fortepiano p'esalari to'plamlari so'z boshidan "bu pyesalar boshdan oyoq xalq musiqasi ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ularni ijro etgan va tinglagan kishilar musiqa orqali Amerika xalqining xarakterini tushunib olishlari mumkinligini ta'kidlaydi.

Keyinchalik o'z nutqlarining birida ana shu so'zlarni takrorlab, bolalar mazkur pyesalarini sevib qolishganini va qiziqish bilan o'rganishayotganini, bu p'esalar faqatgina yaxshi asar va ularni ijro etish foydali mashg'ulotgina bo'lib qolmay, dunyo haqidagi

tasavvurlarini boyitish va ularda o`zlari ko`rmagan mamlakatga qiziqish uyg`otishini, san`atning roli ana shundan iborat ekanini uqtirgan edi.

1.2. Musiqa va milliy ma'naviyat

Musiqa san'ati asrlar davomida xalqimiz ma'naviy olamining ajralmas qismi sifatida e'zozlanib kelinadi. Donishmand xalqimizda: *"Musiqaqa oshno kishidan yomonlik chiqmaydi"*, -degan qarashlar mavjud. Shuning uchun bo'lsa kerak Markaziy Osiyo xalqlarida uyning to'riga musiqa asbobini osib qo'yish yoki oila a'zolaridan biror kishi biror bir musiqa asbobida kuy chalish yohud ashula aytishi zarurligi xalqimizning ziyoli oilalariga qo'yilgan minimal talablaridan biri bo'lgan. Tarixga murojaat qilaylik buyuk mutafakkir Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, A.Qodiriy kabi alloma va ma'rifatparvarlarimizning ko'pchiligi dutor yoki tanbur chalishda alohida mahorat egalari bo'lishganlar. Mana shu misollarning o'ziyiq bizning qanday tafakkur sohibi, qay darajadagi dunyoqarash egasi ekanligimizni ko'rsatib turadi.

Xalqimizning siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishi boshqa sohalar singari ta'lim va tarbiya jarayonida ham misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlarni yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Bevosita muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov rahnamoligida musiqiy merosni tiklash va ommalashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Xususan, mamlakatimizda qator-qator musiqa maktablari va san'at kollejlarning bunyod etilishi va faoliyat ko'rsatishi kelajagimiz vorislarining ma'naviy dunyo qarashida go'zallik elchisi bo'lgan musiqani keng ko'lamda o'rnatib olishiga imkon

yaratmoqda. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida bolalar musiqa jamoalarini tuzish, ansambllarga repertuar tanlash, tanlangan repertuar xalqimizning folklor sanʼatiga yoʻnaltirilishiga eʼtiborning qaratilishi ham yuqorida taʼkidlangan ishlarimizning izchil davomi sanaladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida bolalar folklor jamoalarini tuzish, musiqiy jamoalarda xalq qoʻshiqlari namunalariga keng oʻrin ajratishning oʻziga xos pedagogik tomonlari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Oʻquv muassasalarida bolalar musiqiy jamoalarini tuzish tarbiyalanuvchilarda musiqa sanʼatiga havas uygʻotadi. Tarbiyalanuvchi bolalar turli muhitdagi turli dunyoqarashdagi, turli maslakdagi oilalar vakillari ekanligini diqqat markazimizdan qochirmasligimiz lozim. Istalgan oʻquvchi musiqiy topshiriqni eplay olmasligi musiqa oʻqituvchilariga sir emas. Shuning uchun aksariyat hollarda murabbiylarimiz ovozi yaxshi yoki nisbatan sayqallangan, musiqadan nisbatan xabardor, ashula hirgoyi qiladigan, musiqa sanʼatiga ishtiyoqi baland oʻquvchilarni tanlashga eʼtibor berishadilar. Toʻgʻri, bu yoʻl murabbiyning oʻz maqsadlariga erishishi uchun ancha yengillik tugʻdiradi. Masalaning boshqa bir tomoni bor. Gap shundaki, komil insonni tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchini oʻz ortidan ergashtira olish mahoratiga ega boʻlish istiqlol davri musiqa oʻqituvchisi oldida turgan muhim masalalardan biri ekanligini unitmasligimiz zarur. Mana shu nuqtai nazardan yondoshadigan boʻlsak, bolalar musiqa jamoalari tarkibini tuzish uchun musiqa darslari oʻz sifati va samaradorligi bilan muhim

ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'qituvchisi o'quv mashg'uloti jarayonida o'quvchilarga musiqa san'atiga mehr uyg'ota olishi shart. Tarbiyalanuvchidagi musiqaga nisbatan shakllangan mehr uni keyinchalik san'atning bu turiga oshufta, fidoyi bo'lishga undaydi. Oshuftalik va fidoyilik bolani ustoz tomonidan berilayotgan topshiriqlarni sidqidildan bajarishga, o'z qilgan ishidan mamnunlik hissini tuyishga olib keladi. Bola o'z shuurida kechayotgan bunday yangilikdan baxtiyor bo'ladi. O'z mahoratini namoyish etish zarurligini his qiladi. Natijada odatdagi bolalar va o'smirlarda kechadigan *uyalish, hayajonlanish* kabi ruhiy jarayonlar o'z – o'zidan barham topadi. O'quvchida o'z-o'zidan faxrlanish, o'ziga ishonish, o'zini madaniyatli his etish(bu oliftalik emas), katta san'atkorlarga taqlid qilish hollari kuzatila boradi.

2. Bolalar musiqa jamoalarida folklor asarlaridan repertuar tanlash o'quvchilar ma'naviy kamolatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Folklor asarlarini jamoaga o'rgatish o'qituvchi uchun ham, o'quvchilar uchun ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Xalq qo'shiqlarining ohangdorligi, matnlarning tanishligi, ijro etilayotgan asarlarning yallaviy xarakterdaligi uni o'zlashtirib olish uchun yengillik tug'diruvchi asosiy vositalar sanaladi.

3. Oddiy o'quvchini qisqa muddatda mahoratli ijrochiga aylanishi, xalq qo'shiqlaridagi badiiy tasviriy vositalari va mazmunning jamoaga hamda tinglovchilarga tez singishi nafaqat jamoa ijrochilarini, balki tinglovchilarni ham ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, shunchaki tomoshabin

bo'lib turgan boshqa bolalarda musiqa san'atiga havas oshadi. Ular ham bu borada o'zlarini sinab ko'rishga intiladilar.

Aksariyat hollarda pedagoglarimiz musiqiy jamolarni tashkil etishda juda yuksak cho'qqilarni ko'zlaydilar. Ularning asosiy maqsadlari turli tanlovlarda g'olib bo'lish, qisqa muddatda katta shon-shuhratga erishishdan iborat bo'lib qoladi. Bizningcha, pedagogning asl mehnati davrlar o'tishi bilan o'z natijasini bera boradi. Biz tanlagan va tarbiyalayotgan o'quvchilarimizning ko'pchiligi ayni paytda mohir ijrochi bo'laolmas, biroq ularning qalbi bir umr kuy va ohang sehriga hamroh bo'lib qolaveradi. Ular garchi yetuk san'atkor bo'lmasalar-da, musiqiy merosimizni hurmat qiladigan, musiqa san'atini qadrlaydigan ma'naviy salohiyatli kishilar bo'lib shakllanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida folklor jamoalarini tuzish o'quvchilar musiqiy madaniyatini oshirishga, ularning milliy musiqiy merosga ehtirom bilan qarashga, o'quvchilarda erkin va ijodiy fikrlash malakalarini shakllanishiga olib keladiki, bu o'z navbatida musiqaning ma'naviy manba ekanligini ko'rsatib turadi.

Milliy musiqa ta'limining asosiy maqsadi barkamol avlodni milliy musiqa me'rosimizga vorislik qiladigan, bilimli, sog'lom yoshlarni tarbiyalash va ularni Ona - Vatanga bo'lgan mehru muhabbatini oshirishdan iborat. Shu bilan birgalikda har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini, san'atga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirish musiqa ta'limining asosiy vazifasidir.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiyotini takomillashtirishda musiqa ta'limining milliy,

an'anaviy va hozirgi zamon yutuqlariga hamda ilg'or tajribalarga ijodiy tayanish maqsadga muvofiqdir.

Respublika umumta'lim maktablari va Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim tarbiya jarayoni ham shaklan, ham mazmunan jahon andozalariga yaqinlashtirilmoqda. Jumladan, o'quv rejalari dasturlari, darsliklar va boshqa qo'llanmalar qayta ishlanib takomillashtirilmoqda. Barkamol avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, ularni musiqiy merosimizga hurmat hissini muhabbatga, qiziqishga, mehrga aylantirish musiqiy ta'lim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Musiqqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan madaniyatli, keng dunyo qarashli, mohir ijrochi, musiqqa san'atiga kasbiy qiziqishda bo'luvchi, kishilar bilan ishlay oladigan, yaxshi tashkilotchi, san'atning hamma turlari, ularning umumiy ta'rifi va tarixi bilan tanish bo'lishi, xalq ta'limi sohasida musiqiy cholg'u asbobi, dirijyorlik, musiqqa tarixi, qo'shiq kuylash sirlari, vokal xor malakalari haqida darslar bera oladigan bilimli, tajribali, xonanda, dirijyor, jo'rnavoz, bir so'z bilan aytganda musiqqa nazariyotchisi va musiqqa asboblarida mohir ijrochi bo'lmog'i lozim. U davlat ta'lim standarti asosida dars ishlanmalarini va xujjatlarini yozuvchi, musiqqa madaniyati darslarini innavatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil eta olishi zarur. Tabiiyki, odob – ahloq o'qituvchi shaxsning eng muhim fazilati sanaladi.

Musiqqa o'qituvchisi ham odobli, tarbiyali, madaniyatli va o'quvchilarga nisbatan mehribon murabbiy bo'lishi, jamiyatning ilg'or shaxsi bo'lishga intilishi, davr talabini tushunish, san'atimiz

va madaniyatimiz istiqbolini his eta olishi, yuksak musiqa madaniyatiga ega faol targ'ibotchi bo'lishi lozim. Bundan tashqari, musiqa o'qituvchisi mutaxassisligini egallagan har bir shaxs musiqa o'qituvchisi bo'lish bilan birga "San'atkor" hamdir.

Musiqa o'qituvchisi o'z fanini jon dildan sevishi, bolajonlarni hurmat qilib, mehr bilan musiqa darslarini olib borishi o'z faoliyatida pedagogika, psixologiya, musiqa uslubiyoti etika va nafosat tarbiyasini uyg'unlashtira olishi milliy musiqamiz qonuniyatlarini, madaniy merosimizni, yosh avlod ongiga to'g'ri va sodda qilib etkaza olishi musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yilgan vazifalar jumlasiga kiradi.

Hozirgi zamon musiqa o'qituvchisi pedagogik muloqat ustasi bo'lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatga ega bo'lmog'i lozim.

Shuningdek, musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi, izlanuvchan - ijodkor bo'lib, musiqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intiluvchan bo'lishi talab etiladi.

1.3. Barkamol avlod tarbiyasida musiqa madaniyati darslarining alohida imkoniyatlari

"Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi,

hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi”¹. Muhtaram yurtboshimizning ushbu soʻzlari yosh avlod tarbiyasida maʼnaviy tarbiyaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini juda aniq va ravshan ifodalaydi.

2010 yilning Prezidentimiz tomonidan “Barkamol avlod yili” deb nomlanishi yoshlar isteʼdodini yuzaga chiqarish, ularni qoʻllab-quvvatlash bilan birga, buyuk bobokalonimiz Amir Temurdek isteʼdodli zotlar oʻtgan yurtning nimalarga qodirligini yana bir bor jahonga koʻrsatishni ham nazarda tutadi.

Oʻzbek xalqi jahon musiqa sanʼati xazinasiga oʻzining milliy durdonalari bilan munosib hissa qoʻshib kelayotgan sanʼatsevar xalqdir. Musiqa, ashula, raqs— oʻzbek milliy madaniyatining xalq hayoti hamda ijodi bilan chambarchas bogʻliq holda paydo boʻlgan va rivojlanib kelayotgan sanʼat turlaridan boʻlib, u milliy madaniyatimiz hamda maʼnaviyatimizning shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshib kelmoqda.

Insonning tarbiyasida, uning yuksalishida maʼnaviyat olamining qanday taʼsir va ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritar ekanmiz, bu sohada musiqa sanʼatining, xususan, “Musiqa madaniyati” darslarining va turli sanʼat toʻgaraklarining ulkan imkoniyatlaridan yanada samaraliroq foydalanish bugungi kunning dolzarb masalasi deb aytsak mubolagʻa boʻlmaydi.

Kelajak avlodni maʼnaviy sogʻlom va barkamol etib tarbiyalashda, ayniqsa, “Musiqa madaniyati” darslari juda qulay imkoniyatlarga boydir. Milliy madaniyatimizning ulkan tarixiy

¹ I.A.karimov.Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch.-T.,”Maʼnaviyat” 2009-y.4-b.

yutuqlari musiqiy pedagogikaning samarali mehnati bilan chambarchas bog`liqdir. Al-Forobiy, A.Navoiy, Aristotel, Aflotun kabi buyuk mutafakkirlar insonning aqliy va ma`naviy kamolotida musiqiy tarbiyaning juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlab o`tishgan hamda o`zlari ham musiqa va musiqiy tarbiya masalalari bilan bevosita shug`ullanishgan.

Ma`lumki, “Musiqqa madaniyati” darsi asosan to`rtta tarkibiy qismdan iborat bo`lib, bu tarkibiy qismlar dars mavzusi va rejasiga mos ravishda turli ketma-ketlikda qo`llanilishi mumkin. Har bir darsda ushbu tarkibiy qismlarning barchasi u yoki bu variantda qo`llanilishi darsning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. “Musiqqa madaniyati” darsining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Musiqqa tinglash,
- Musiqqa savodi,
- Ovoz sozlash,
- Jamoa bo`lib kuylash.

“Musiqqa madaniyati” darslarida tinglanadigan kuy va qo`shiqlar oldindan o`qituvchi va metodistlar tomonidan dars mavzusiga va hayotga (yil fasllariga, mavsumiy marosimlar va milliy bayram arafalariga) moslashtirib tanlanishi o`quvchilarni ma`naviy jihatdan tarbiyalashda juda muhim o`rin tutadi. Shunda o`qituvchi o`quvchilar tinglayotgan kuy yoki qo`shiqni tahlil qilib berar ekan, asarning mazmunidan kelib chiqqan holda uning ma`naviy mohiyatini ochib berish imkoniyatiga ega bo`ladi. Eng avvalo o`qituvchi bolalarning o`ziga yo`naltiruvchi savollar berib, ularning

fikrlarini tinglashi, turli fikrlarni umumlashtirib, o`quvchilarga to`g`ri xulosa chiqarishlari uchun imkon yaratib berishi lozim. Asar mazmunidagi har bir nyuanslarni hozirgi hayot bilan, o`tmishdagi buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlari bilan bog`lagan holda tushuntirish ham o`quvchilar ma`naviy tarbiyasiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Ularda shunday ma`naviyati boy, madaniyatli xalqning farzandlari ekanliklari bilan faxrlanish tuyg`usi hosil bo`ladi va bu tuyg`u ularni ma`naviy barkamollikka yetaklaydi.

Darsning *jamo`a bo`lib kuylash* qismida o`quvchilar o`z yoshlariga va ovoz diapozonlariga mos bo`lgan qo`shiqlarni o`rganishadi. Bu qo`shiqlarning musiqiy mavzusi va matni ularga tushunarli va yoqimli bo`lishi bilan bir vaqtda ularning yoshiga mos bo`lgan tarbiyaviy maqsadlarni ham o`z ichiga olgan bo`lishi juda muhimdir. Asar mazmuni musiqiy ohanglar bilan uyg`unlashgach, oddiy matnga nisbatan bir necha bor ko`proq ta`sir kuchiga ega bo`lishi ko`plab ilmiy-amaliy va pedagogik tajribalarda isbotlangan. Inson (darsda o`quvchi) biror mazmundagi mavzuni so`z orqali eshitganda ma`lum darajada idrok etgani holda, o`sha mavzuni kuy jo`rligida, qo`shiq tarzida eshitganda uni yanada chuqurroq anglaydi va his qiladi. Xuddi o`sha qo`shiqni o`quvchining o`zi ijro etganda esa unda oldingilaridan yanada farq qiluvchi hissiyot paydo bo`ladiki, bunda u asar mazmunini idrok etibgina qolmasdan, balki uni yurakdan his qila boshlaydi. Uning uchun sof tuyg`ularga, nafosatga, barkamollikka intilish xislati tabiiy ehtiyojga aylanib boradi.

Shuningdek, darsdan tashqari va maktabdan tashqari musiqa to`garaklarida ham shunga o`xshash imkoniyatlar mavjud. Bundan tashqari musiqa to`garaklarida mashg`ulot turlariga ko`ra har bir o`quvchiga individual munosabatda bo`lish imkoniyatlari sinfdagi darslarga qaraganda yanada kengroq. Shuni hisobga olgan holda to`garak rahbarlari bu tarbiyaviy imkoniyatlardan keng foydalangan holda faoliyat olib borsalar, ma`naviy tarbiyada yanada samaraliroq natijalarga erishishlari mumkin.

“Kadrlar tayyorlash milly dasturi”ning sifat ko`rsatkichi bosqichi davom etayotgan hozirgi davrda musiqa madaniyatiga Prezidentimiz va Hukumatimiz tomonidan yanada ko`proq e`tibor berilayotgani, bu sohada yoshlar uchun yangi-yangi imkoniyatlar yaratilayotgani ham jamiyatning madaniy rivojlanishida va yoshlarning ma`naviy kamol topishida musiqa madaniyati qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi. Bu esa “Musiqa madaniyati” fani o`qituvchilari zimmasiga shunday sharaflı vazifani yuklaydi va ularni yanada samaraliroq faoliyat ko`rsatishga undaydi.

II-Bob. Yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining roli

2.1.Musiqa tarbiyasida badiiy ijro masalasi

Musiqqa san'ati mustaqil Respublikamiz fuqarolari ma'naviy dunyosini boyitish, ularni go'zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ijobiy xususiyatlarga ega. Ma'naviy g'oyasi yuksak, badiiy jozibali musiqqa asarlari kishilar qalbiga tezroq yo'l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta'sir qilish, hayotiy voqea – hodisalarni chuqur mushohada qilishga da'vat etishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati oshgan sari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishi ham tobora kengayib va murakkablashib boradi. Ilmiy bilimlarning to'planib borishi esa o'z navbatida o'quv predmetlari va ularning mazmuni o'zgarishiga olib keladi.

SHu sabablarga ko'ra ta'lim maqsadini, mazmunini va metodlarini ilmiy asoslash zaminida pedagogikaning muhim tarmog'i o'quv predmetlarining metodikasini yaratish zarurati tug'iladi. O'quv predmetining metodikasi – ta'limning umumiy qonuniyatlarini hamda ayrim xususiyatlarini o'rganadigan fandır.

Ma'lumki, barcha metodlar ta'limning umumiy nazariyasi bo'lgan didaktikaga asoslanadi. Ayrim fanlarni o'rgatish metodikasining asosiy vazifalari – o'rgatishning qonuniyatlarini ochish, mazmunini, metod va shakllarini aniqlash bo'lib, ayni paytda u tarbiyalash ishini ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi paytda o'zbek xalq cholg'ularida ijroni o'rgatish ishida ilg'or milliy pedagogikasining asosiy printsiplariga tayangan holda tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Respublikamizda xalq cholg'u ijrochiligini yanada yuqori pog'onalariga ko'tarishda

o'rgatish metodikasining sifatli darajada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiq bilan shug'ullanish umumiy va maxsus qobiliyatlarning muayyan majmuini talab qiladi. Qobiliyat deganda kishining biror ijtimoiy – foydali faoliyat turini muvoffaqiyatli bajarishga layoqatini ifodalaydigan xususiyatlari yoki sifatlari tushuniladi.

Qobiliyatlarning yashirin va aktual qobiliyatlarga bo'linishi ularning shakllanishi va o'sishini tahlil qilish imkonini beradi. Bunda shaxsning shakllanishi dialektikasi o'z ifodasini topadi: ijtimoiy sharoitlar shaxsni shakllantiradi va unda kishining u yoki bu yashirin psixik xususiyatlari mavjudligining haqiqiy daliliga aylantiradi. SHaxsning yashirin qobiliyatlariga kishining o'ziga xos xususiyatlari sifatida qaraladi va bu xususiyatlar uning yanada kamol topishiga asos bo'ladi, unda o'ziga xos fe'l – atvorni vujudga keltiradi, har bir kishi o'zining psixik tabiatiga eng muvofiq faoliyatni tanlashida yaqqol ko'rinadi.

Qobiliyat hayotida, iste'dodlar asosida shakllanadi. SHuning uchun tug'ma va o'zlashtirilgan qobiliyatlarning muvofiqligi masalasi keng muhokama qilinadi. Qobiliyatning rivojlanishida organizmning anatomik fiziologik xususiyatlar nerv sistemasining tuzilishi, nerv jarayonlarining harakatchanligi, miya faoliyatining xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Avloddan avlodga mustahkamlanib kelgan mana shu shartlarning hammasi qobiliyatlarning rivojlanishi uchun iste'dod sifatida xizmat qiladi.

Taniqli olim B. M. Teplov musiqiy qobiliyatlar muammosini chuqur tadqiq etib, hech qanday psixologik xususiyat tug'ma bo'lmasligini, faqat iste'dod tug'ma bo'lishi mumkinligini qayd qildi. U iste'dodlar asosida musiqiy qobiliyatni yaxshi rivojlantirishning sharti kishini mazkur qobiliyat uzluksiz asqotadigan faoliyatga jalb qilish ekanini isbotladi.

Musiqiy qobiliyatlarga musiqani anglash, musiqani tinglay olish, tinglashni nazorat qilish, musiqiy xotira, shuningdek, diqqat, tasavvur va maxsus ijrochilik qobiliyatlar kiradi.

Musiqiy qobiliyatlarning eng muhimlaridan biri musiqani anglashdir.

E. Yefrusining tadqiqoti, musiqani faol, yaxlit idrok etish va tegishlicha chalishni tarbiyalashga qaratilgan.

E. Yefrusi o'quvchilarning eshitishini tarbiyalash maqsadida cholg'u asboblarda chalishni bevosita o'rgatishdan oldin ular bilan tayyorgarlik mashg'ulotlarni o'tkazgan. Bu mashg'ulotlar asbobda chalingan butun musiqa materialini eshitib o'rganishga qaratilgan. O'quvchilar eshitishini rivojlantirishning Ye. Yefrusi taklif qilgan usuliyatida avvalo kuylarni eshitib chalish va cholg'u asbobiga ko'chirish asosiy o'rin olgan, buning uchun oldin kuylar aytilgan, ovozlar ko'chirilgan va ularning tuzilishi tahlil qilingan.

Chalish, ko'chirish va ijod elementlari o'quvchilarning musiqiy –eshitish rivojlanishiga eng faol ta'sir etadigan usullar hisoblanadi.

Qator asarlarda cholg'u asboblarda chalish usuliyati ishlab chiqilgan. Tanlashdan oldin musiqiy eshitish tasavvurlarining

to'planish davri o'tadi. CHalish usuliyatida bevosita hissiy idrokka, kuyning tuzilishini juz'iy anglashda va uni ijrochiga xos tartibli harakatlar bilan ijro etishga katta ahamiyat beriladi.

Xalq qo'shiqlaridan olingan parchalar kuyning tuzilishi. ritmik tasviri va tonallik asosi soddaligi, shuningdek, musiqiy ma'nosi chuqurligi bilan eshitishni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan dastlabki ishlar uchun ajoyib material bo'ladi. CHalishni yorqin, qisqa harakati kamayib boradigan tertsiya kvarta diapazonidagi kuylardan boshlash kerak.

Kuyni chalishdan oldin bevosita idrok etish va uning tuzilishini: birinchi tovushini, ritmik tasvirini, diapazonini, takrorlanuvchi tovushlarini, kuyning yo'nalishini juz'iy ravishda anglab olish kerak. Agar o'quvchilar kuyni tahlil qilishga ehtiyojmand bo'lmasalar, uni chalishga kirishish lozim.

Musiqy – eshitish tasavvurlarining rivojlanishi va chalish bo'lishi mumkin:

1. Bitta tovushni, uning xarakterini va tovushning tembrini eshitib tasavvur etish;

2. O'quvchida mavjud eshitish tasavvuriga munofiq bitta tovushni har xil chalish qobiliyatini rivojlantirish. Buning uchun chalish harakatlarini tasavvur etish va mayin, cho'ziq, chuqur, qattiq, eng qisqa kabi muayyan xarakterdagi tovushlarni chiqarishga intilish kerak. O'quvchi tovushning xarakteri va tembrini aniq eshitish kayfiyatini hamda harakatlarni talab qilishini tushunadi. Bunda o'quvchining tembr haqidagi tasavvuri rivojlanishi alohida rol o'ynaydi.

CHolg'u asbobi bilan tanishishni dastlabki kunlardan boshlab musiqiy -eshitish tasavvurlarining xarakteriga mos rang - barang tovushlarni va maqsadga muvofiq harakatlarni izlash lozim. Bir tovushni har xil qilib ijro eta olish yoki kuylarni his qilish va chala bilish kerak. Bu esa boshlovchi ijrochilar uchun mas'uliyatli topshiriq hisoblanadi.

Musiqqa asboblarida chalishni o'rgatish metodikasi kursi xususiy usuliyatlar jumlasiga kiradi. Lekin uning metodologik muammolari bilishning umumiy usuli sifatidagi dialektik va tarixiy materializm asosidagina hal qilinishi mumkin. Mazkur kursga kompleks ilmiy – pedagogik fan sifatida qarash lozim. Binobarin, u falsafa va estetik fanning, pedagogika va psixologiyaning, oliy nerv faoliyati, fiziologiya va etikaning umumiy muammolaridan chetda turmaydi, balki ularning barcha ilmiy yutuqlaridan foydalanadi.

Bu metodika ilmiy pedagogik fan sifatida umumiy didaktik printsiplarga asoslanadi va tabiiyki, o'ziga xos yo'nalishlarga ham ega. Ma'lumki, ta'lim printsiplari o'qitishning asosiy omillarini yoritadi, ta'limda o'qituvchining o'rni va rolini o'zining ham, o'quvchi - yoshlarning ham faoliyatini tashkil etish orqali o'quv jarayonini boshqarish imkonini belgilaydi.

"Ta'lim printsiplari – bu milliy tarbiya va ta'lim maqsadlariga, bilimlar va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish qonuniyatlariga muvofiq bo'lgan o'qitishga o'rganishning qay tarzda borishini belgilaydigan rahbar qoidalardir".

CHolg'uda ijro etishni o'rgatish jarayonida milliy pedagogikasi asos solgan quyidagi ta'lim printsiplaridan foydalaniladi

- ta'limning ilmiyligi;
- ta'limning sistemaliligi va izchilligi;
- o'quvchilarning ongliligi va faolligi;
- ta'limning ko'rgazmaliligi;
- nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- ta'limning tushunarliqligi;
- ta'limning maqsadga qaratilganligi;
- ta'limda o'quvchilarga individual yondashish;
- bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirishning puxtaligi.

Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarni hammasini bajargandan so'ng o'quvchilarda badiiy ijroga bo'lgan tasavvur kuchayadi. CHolg'u ijro mahoratini oshirish to'g'risida bo'lgan fikrlar yanada kengayib, badiiy asarlarni ijro etishda o'zlari ko'zlagan maqsadga erisha olish istagi rivojlanganini seza boshlaydilar. Musiqiy asarlarni badiiy ijro etish malakalari shakllanganligini o'quvchilarning o'zlari aniqlay boshlaydilar.

2.2. Musiqa to'g'risida buyuk san'atshunos olimlarning bildirgan fikr - mulohazalarining yoshlar ma'naviy-madaniyatini shakllantirishda tutgan o'rni

Musiqqa ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasidir. Musiqqa o'zining jozibasini bilan inson qalbini rom etadi. U kishi ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bag'ishlaydi. Musiqqa kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi va mushohada qilishiga ko'makdosh bo'ladi. Ayni bir paytda, musiqqa kishilarning ulug' ishlarga safarbar etuvchi qudratli kuchga ham ega.

SHu bois bo'lsa kerak, SHarqning buyuk mutafakkirlari Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Axmad Yassaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiylar o'z ijodlarida musiqqa san'atiga alohida e'tibor qaratganlar, uni ulug'laganlar. San'atni inson qalbi va ruhiyatining jon ozig'i deb bilganlar.

San'at va san'atkorni doimo qadrlaganlar. Ularning ta'kidlashlaricha chinakam san'atga oshno bo'lgan madaniyatli va ma'naviyatli kishilar yurt obro'sini ko'taradilar, o'zlari esa xalq hurmatida bo'ladilar.

SHu asnoda Prezidentimiz I.A.Karimovning «Kelajagi buyuk davlat, eng birinchi navbatda, bo'lajak fuqarolarning madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmogini zarur», «Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda faravonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yecha olmasak barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham kelajak ham, faravon hayot ham bo'lmaydi!».² - degan qanotli so'zlari naqadar oqilona, ma'naviy-

² Ислом Каримов. «Юксак маънавият - энгилмас куч». -Т.,«Маънавият».2008 й.

ma'rifiy yo'nalishdagi davlatimiz siyosatini belgilab beruvchi o'ziga xos dastur amal bo'ldi desak yanglishmaymiz.

Dono xalqimiz qadim-qadimdan oq musiqa va qo'shiqni o'z ijtimoiy va madaniy hayotlarini muhim bo'lagi deb bilganlar. Farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish oila orzusi sanalgan, xonadonda yaxshi niyat bilan biron-bir cholg'u sozi saqlanishi odat qilingan.

Yoshlik - inson umrining bahori. Inson yoshligidan nafosat olamiga jalb etilmasa, eng ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalanmasa, keyinchalik turmush chorrahalarida dovdirab qoladi. SHuning uchun ham ma'naviy tarbiyaning muhim qismi - musiqa saboqlari berishni yoshliqdan boshlash lozim.

SHarqning ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Kavkabiylar, xazrat Navoiy, Umar Hayyom, Jomiy kabi jahonga nom taratgan buyuk allomalari ham musiqa ilmiga katta e'tibor berganliklarini ko'ramiz, musiqa san'ati inson tarbiyasida muhim o'rin tutishligini, kishi madaniyati va umuman ma'naviyatida ustivor o'rinda turishligini baralla ta'kidlaganliklarini bilamiz.

Aristotel ta'biri bilan aytganda, «Musiqa qalbning axloqiy-estetik jihatlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga qodir. Modomiki, musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog'i lozim».

Abu Ali ibn Sino faqatgina shifokor emas, taniqli musiqashunos ham edi. Hatto g'ijjakning yaratilishi bilan bog'liq rivoyat ham ibn Sinoga bag'ishlangan: go'yoki bu cholg'u asbobini ixtiro qilgan va unda kuy chalgan odam ulug' hakim emish. «Kitob ash-SHifo» asarida

yoʻzilishicha, musiqa kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli taʼsir etuvchi estetik vositalardan biridir.

Alisher Navoiy nozik taʼb, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Musiqani sevmagan shoir qalbi huvillagan charbogʻ, xazon boʻlgan bahordir. «Musiqani idrok etmagan shoir, nim shoirdir», - deydi Navoiy.

Musiqa ulkan taʼbirchan kuchga ega boʻlgan tarbiya vositasidir. Musiqa inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon oʻzigʻidir. U kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi.

Demak, musiqa faqat badiiy ijod, sanʼat turi boʻlib qolmasdan, balki maʼnaviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham oʻrganilishi lozim.

...Oldin odamlarni moddiy boyitib borish, soʻngra maʼnaviyat toʻgʻrisida oʻylash kerak, deydiganlar boʻlmasalar kerak degan edi, - Islom Karimov, - maʼnaviyat - insonning, xalqning, davlatning kuch-kudratidir. «U yoʻq joyda hech qachon baxt-saodat boʻlmaydi.»³

Arastu yozgan ediki: «Musiqa koʻngilga axloqan taʼsir koʻrsatish qudratiga ega ekan, u albatta yoshlarni tarbiyalash qoʻllanmalari qatoriga qoʻyilmogʻi lozim».

Musiqa va musiqashunoslik ilmini chuqur tadqiq qilgan buyuk alloma **Forobiy** ham musiqani axloq bilan bogʻliqligiga chuqur ishonch hosil qilgan edi:

³ Islom Karimov. «Юксак маънавият - энгилмас куч». -Т.,«Маънавият».2008 й.

Abduraxmon Jomiy o'zining «Musiqqa haqida risola»sida maqomlar haqida fikr yuritib: «Bilki, kishiga lazzat baxsh etishdan iborat umumiy xususiyatlardan tashqari 12 maqomdan har biri, har bir ovoza va sho'ba maxsus ta'sir kuchiga ega. Masalan: Ushshoq, Navo, Bo'saliq tinglovchida qudrat va jasurlik uyg'otadi, vaholangki, ovoz bunday ta'sir kuchga ega emas», - deya xayratlangan.

CHartz Darvin san'atning zaruriyati hamda uning kishi ongi va axloqiga ta'siri to'g'risida bunday degan edi: «Agar menga qaytadan umr ko'rish nasib bo'lganda edi, men har kuni oz-ozdan she'riy asarlar o'qib borishni va ozroq musiqqa tinglashni o'zimga odat qilib olgan bo'lardim». Agar juda yopglik chog'idanoq bola qalbiga musiqqa asarining go'zalligi ta'sir yettirilsa, agar bola tovushlarda inson his-tuyg'ularining ko'p qirrali ma'nolarini sezsa, u hech qanday boshqa vositalar bilan erishib bo'lmaydigan madaniyat cho'qqisiga ko'tariladi. Musiqqa ohanggi go'zalligini his yetish, bola qarshisida o'z go'zalligini yaratadi - kichik inson o'z obro'-e'tiborini angelaydi.

«Musiqqa tarbiyasi - bu musiqachini tarbiyalash degan gap emas, balki birinchi galda insonni tarbiyalash demaqqdir, - deganida *V. A.Suxomlinskiy* tamomila haq edi.

Buyuk musiqqa san'atini seving va o'rganing, u sizda olam jahon ulug' hislar, jo'shqin fikrlar uyg'otadi. U sizni ruhan boyitadi, pok qiladi, kamolga yetkazadi. Musiqqa tufayli siz o'zingizda yangi kuch sezasiz, u tufayli turmush yangi rang va bo'yokdarda jilo topadi».

«Musiqqa kishini hayotga chanqoqlikka o'rgatadi, mehnat unumini oshiradi. Insonning hayotga bo'lgan siyosiy, estetik qarashlari shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Inson musiqasiz yashashni tasavvuriga sig'dirolmaydi. Musiqiy tovushlarsiz hayot kir va qashshoqdir», - degan edi buyuk kompozitor **D.SHostakovich**.

«SHarq musiqasi, - degan edi **I.A.Karimov** «SHarq taronalari» xalqaro musiqqa festivalining ochilish marosimidagi tabrik so'zida, - SHarq falsafasi, SHarq dunyosining uzviy bir qismidir. SHarq musiqasining jahon marosimida tutgan o'rni benihoya buyuk... Bu musiqqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. O'zining nozik jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo'shmoqda».

Buyuk bastakor **Lyudvig van Betxoven** kuy to'g'risida gapirib, shunday deydi: «Musiqqa - donishmandlik va falsafadan ham yuksakroq dil izhoridir».

Kuylarimiz, navo-yu, xonishlarimiz bizning tilimizni bilmagan xalqlarga qanchalik ta'sir qilganini, kuy-g'azallarimiz o'zga yurt odamlari qalbiga singib ketishini ko'rib, xayratda qolganmiz, - mashxur sozanda **Abduxoshim Ismoilov**.

Musiqiy ta'limning eng asosiy vazifasi, o'quvchilarni san'atning ajoyib va g'aroyib olamiga yetaklash orqali ularni go'zallik va nafosat tuyg'ularini o'stirish, olam haqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, badiiy didlarini to'g'ri shakllanib borishiga yordamlashish, ularda axloqiy sifatlarni shakllantirish va yeng asosiysi, san'at vositasida yosh

o'quvchilarda Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalash, ma'naviyatini o'stirib, borishdan iboratdir.

Bu vazifalar musiqa o'qituvchisiga yuklatiladi. Bu jiddiy, pedagogik va psixologik jihatdan birmuncha murakkab bo'lgan vazifalar qanday yo'llar bilan bajariladi? Buning yo'l va vositalari ko'p. SHulardan biri o'quvchilarning ma'naviyatini o'stirishni ta'minlash. Bu ham bir qarashda murakkab ko'rinadi. Lekin, musiqa o'qituvchisi yetarli bilimli bo'lsa, o'z ishini sevsa, bolalar bilan ishlash unga bahra bersa albatta maqsadga erishish mumkin.

Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularning did va ehtiyojlarini o'stirib borish bobida qanchalik ko'p izlansak, tajribalarni qo'llasak, buning samarasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Prezidentimiz **I.A.Karimov** yoshlarning milliy ma'naviyati haqida fikr yuritib: *«Yana bir dolzarb vazifa — o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalaridir. SHuning uchun har bir o'gil-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo'lishi kerak.*

Iste'dodli yoshlarimizning, yigit-qizlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo'lib yetishishi uchun tegishli shart-sharoitlar hali to'la yaratilgani yo'q.

Agarki, biz o'zimizning ma'naviy burchimizni oklashni istasak, ularga otalarcha gamxo'rlik qilishimiz kerak. Ana shu maqsadda biz ularning mamlakatimiz va chet ellardagi nufuzli ilmiy markazlarda

ta'lim olishi uchun mablag'lar ajratdik. Bu ishlar uchun hech narsani, shu jumladan, valyutani ham ayamaymiz.

Keyingi paytda san'atda oshkorlikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'lmagur lavhalarni aks ettirish, bema'nilik va hayosizlikni, ba'zan esa, hatto axloqiy buzuvchilikni targ'ib qilishlar ko'payib qoldi.

Barchamiz - qaerda, qanday lavozimda ishlamaylik, jamiyatimizning insoniylik va axloqiy aqidalarini poymol qiladigan ana shunday tajovuzkorlik ko'rinishlariga qat'iy ravishda qarshi turushimiz lozim. Bunday munosabat jamoatchiligimiz, xalqimizga ham ma'qul bo'ladi, deb ishonaman».⁴

Ulug'-bobokalonlarimizning SHarq tarbiyasiga musiqa ilmining qay darajada ta'sir etishi haqidagi hikmatli so'zlariga e'tibor qarataylik:

Musiqa shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulkinini tartibga keltiradi. Go'zal ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish, sog'liqqa foydalidir. CHunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi.

Abu Nasr Forobiy

Go'dak tanasidagi a'zolari mustahkamlashda foydali va zarur narsalar - uni asta tebratish hamda allalab aytiladigan kuy va qo'shiqlardir. Biri badanga, biri ruhga tegishli.

⁴ И.А.Каримов. «Юксак маънавият - енгилмас куч». -Т., «Маънавият». 2008 йил.

Sino Oshiqnlarni talablari jomi sharob,
Ma'shuqaga yetmoq uchun bag'ri kabob
Ruhlarining g'izosidur
changu rubob,
Oh cheksa yetti iqlim
vayron qilur.

Xo'ja Ahmad Yassaviy

Xulosa shuki, biz ustoz-murabbiylar yosh avlodga otabobolarimizdan meros bo'lib qolgan milliy musiqaning oxirini to'kmay, yoshlarga yetkazishimiz lozim. SHunday qilaylikki, mustaqil O'zbekiston manfaatlariga xizmat qiluvchi, tilini, dinini, tarixiy madaniyatini, adabiyoti va san'atini yuksak darajada biluvchi, uning quvonchi va tashvishi bilan hamnafas yashashga qodir musiqa o'qituvchilarini voyaga yetishtirib chiqmog'imiz darkor.

2.2. Musiqa to'g'risida buyuk san'atshunos olimlarning bildirgan fikr - mulohazalarining yoshlar ma'naviy-madaniyatini shakllantirishda tutgan o'rni

Musiqa ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasidir. Musiqa o'zining jozibasi bilan inson qalbini rom etadi. U kishi ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bag'ishlaydi. Musiqa kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin

topishi, fikrlashi va mushohada qilishiga ko'makdosh bo'ladi. Ayni bir paytda, musiqa kishilarning ulug' ishlarga safarbar etuvchi qudratli kuchga ham ega.

SHu bois bo'lsa kerak, SHarqning buyuk mutafakkirlari Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Axmad Yassaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiylar o'z ijodlarida musiqa san'atiga alohida e'tibor qaratganlar, uni ulug'laganlar. San'atni inson qalbi va ruhiyatining jon ozig'i deb bilganlar.

San'at va san'atkorni doimo qadrlaganlar. Ularning ta'kidlashlaricha chinakam san'atga oshno bo'lgan madaniyatli va ma'naviyatli kishilar yurt obro'sini ko'taradilar, o'zlari esa xalq hurmatida bo'ladilar.

SHu asnoda Prezidentimiz I.A.Karimovning «Kelajagi buyuk davlat, eng birinchi navbatda, bo'lajak fuqarolarning madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmogi zarur», «Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda faravonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yecha olmasak barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham kelajak ham, faravon hayot ham bo'lmaydi!»⁵ - degan qanotli so'zlari naqadar oqilona, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi davlatimiz siyosatini belgilab beruvchi o'ziga xos dastur amal bo'ldi desak yanglishmaymiz.

Dono xalqimiz qadim-qadimdanoq musiqa va qo'shiqni o'z ijtimoiy va madaniy hayotlarini muhim bo'lagi deb bilganlar. Farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish oila orzusi

⁵ Ислом Каримов. «Юксак маънавият - энгилмас куч». -Т.,«Маънавият».2008 й.

sanalgan, xonadonda yaxshi niyat bilan biron-bir cholg'u sozi saqlanishi odat qilingan.

Yoshlik - inson umrining bahori. Inson yoshligidan nafosat olamiga jalb etilmasa, eng ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalanmasa, keyinchalik turmush chorrahalarida dovdirab qoladi. SHuning uchun ham ma'naviy tarbiyaning muhim qismi - musiqa saboqlari berishni yoshliqdan boshlash lozim.

SHarqning ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Kavkabiy, xazrat Navoiy, Umar Hayyom, Jomiy kabi jahonga nom taratgan buyuk allomalari ham musiqa ilmiga katta e'tibor berganliklarini ko'ramiz, musiqa san'ati inson tarbiyasida muhim o'rin tutishligini, kishi madaniyati va umuman ma'naviyatida ustivor o'rinda turishligini baralla ta'kidlaganliklarini bilamiz.

Aristotel ta'biri bilan aytganda, «Musiqa qalbning axloqiy-estetik jihatlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga qodir. Modomiki, musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog'i lozim».

Abu Ali ibn Sino faqatgina shifokor emas, taniqli musiqashunos ham edi. Hatto g'ijjakning yaratilishi bilan bog'liq rivoyat ham ibn Sinoga bag'ishlangan: go'yoki bu cholg'u asbobini ixtiro qilgan va unda kuy chalgan odam ulug' hakim emish. «Kitob ash-SHifo» asarida yozilishicha, musiqa kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli ta'sir etuvchi estetik vositalardan biridir.

Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Musiqani sevmagan shoir qalbi

huvillagan charbog', xazon bo'lgan bahordir. «Musiqani idrok etmagan shoir, nim shoirdir», - deydi Navoiy.

Musiqqa ulkan ta'birchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasidir. Musiqqa inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig'idir. U kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi.

Demak, musiqqa faqat badiiy ijod, san'at turi bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o'rganilishi lozim.

...Oldin odamlarni moddiy boyitib borish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak, deydiganlar bo'lmasalar kerak degan edi, - Islom Karimov, - ma'naviyat - insonning, xalqning, davlatning kuch-kudratidir. «U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi.»⁶

Arastu yozgan ediki: «Musiqqa ko'ngilga axloqan ta'sir ko'rsatish qudratiga ega ekan, u albatta yoshlarni tarbiyalash qo'llanmalari qatoriga qo'yilmog'i lozim».

Musiqqa va musiqashunoslik ilmini chuqur tadqiq qilgan buyuk alloma **Forobiy** ham musiqani axloq bilan bog'liqligiga chuqur ishonch hosil qilgan edi:

Abduraxmon Jomiy o'zining «Musiqqa haqida risola»sida maqomlar haqida fikr yuritib: «Bilki, kishiga lazzat baxsh etishdan iborat umumiy xususiyatlardan tashqari 12 maqomdan har biri, har bir ovoza va sho'ba maxsus ta'sir kuchiga ega. Masalan: Ushshoq,

⁶ Islom Karimov. «Юксак маънавият - энгилмас куч». -Т.,«Маънавият».2008 й.

Navo, Bo'saliq tinglovchida qudrat va jasurlik uyg'otadi, vaholangki, ovoz bunday ta'sir kuchga ega emas», - deya xayratlangan.

CHartz Darwin san'atning zaruriyati hamda uning kishi ongi va axloqiga ta'siri to'g'risida bunday degan edi: «Agar menga qaytadan umr ko'rish nasib bo'lganda edi, men har kuni oz-ozdan she'riy asarlar o'qib borishni va ozroq musiqa tinglashni o'zimga odat qilib olgan bo'lardim». Agar juda yopglik chog'idanoq bola qalbiga musiqa asarining go'zalligi ta'sir yettirilsa, agar bola tovushlarda inson his-tuyg'ularining ko'p qirrali ma'nolarini sezsa, u hech qanday boshqa vositalar bilan erishib bo'lmaydigan madaniyat cho'qqisiga ko'tariladi. Musiqa ohanggi go'zalligini his yetish, bola qarshisida o'z go'zalligini yaratadi - kichik inson o'z obro'-e'tiborini anglaydi.

«Musiqa tarbiyasi - bu musiqachini tarbiyalash degan gap emas, balki birinchi galda insonni tarbiyalash demaqdir, - deganida **V. A.Suxomlinskiy** tamomila haq edi.

Buyuk musiqa san'atini seving va o'rganing, u sizda olam jahon ulug' hislar, jo'shqin fikrlar uyg'otadi. U sizni ruhan boyitadi, pok qiladi, kamolga yetkazadi. Musiqa tufayli siz o'zingizda yangi kuch sezasiz, u tufayli turmush yangi rang va bo'yokdarda jilo topadi».

«Musiqa kishini hayotga chanqoqlikka o'rgatadi, mehnat unumini oshiradi. Insonning hayotga bo'lgan siyosiy, estetik qarashlari shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Inson musiqasiz yashashni tasavvuriga sig'dirolmaydi. Musiqiy tovushlarsiz hayot kir va qashshoqdir», - degan edi buyuk kompozitor **D.SHostakovich**.

«SHarq musiqasi, - degan edi *I.A.Karimov* «SHarq taronalari» xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi tabrik soʻzida, - SHarq falsafasi, SHarq dunyosining uzviy bir qismidir. SHarq musiqasining jahon marosimida tutgan oʻrni benihoya buyuk... Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. Oʻzining nozik jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qoʻshmoqda».

Buyuk bastakor *Lyudvig van Betxoven* kuy toʻgʻrisida gapirib, shunday deydi: «Musiqa - donishmandlik va falsafadan ham yuksakroq dil izhoridir».

Kuylarimiz, navo-yu, xonishlarimiz bizning tilimizni bilmagan xalqlarga qanchalik taʼsir qilganini, kuy-gʻazallarimiz oʻzga yurt odamlari qalbiga singib ketishini koʻrib, xayratda qolganmiz, - mashxur sozanda *Abduxoshim Ismoilov*.

Musiqiy taʼlimning eng asosiy vazifasi, oʻquvchilarni sanʼatning ajoyib va gʻaroyib olamiga yetaklash orqali ularni goʻzallik va nafosat tuygʻularini oʻstirish, olam haqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, badiiy didlarini toʻgʻri shakllanib borishiga yordamlashish, ularda axloqiy sifatlarni shakllantirish va yeng asosiysi, sanʼat vositasida yosh oʻquvchilarda Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalash, maʼnaviyatini oʻstirib, borishdan iboratdir.

Bu vazifalar musiqa oʻqituvchisiga yuklatiladi. Bu jiddiy, pedagogik va psixologik jihatdan birmuncha murakkab boʻlgan vazifalar qanday yoʻllar bilan bajariladi? Buning yoʻl va vositalari koʻp. SHulardan biri oʻquvchilarning maʼnaviyatini oʻstirishni

ta'minlash. Bu ham bir qarashda murakkab ko'rinadi. Lekin, musiqa o'qituvchisi yetarli bilimli bo'lsa, o'z ishini sevsa, bolalar bilan ishlash unga bahra bersa albatta maqsadga erishish mumkin.

Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularning did va ehtiyojlarini o'stirib borish bobida qanchalik ko'p izlansak, tajribalarni qo'llasak, buning samarasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Prezidentimiz **I.A.Karimov** yoshlarning milliy ma'naviyati haqida fikr yuritib: *«Yana bir dolzarb vazifa — o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalaridir. SHuning uchun har bir o'gil-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo'lishi kerak.*

Iste'dodli yoshlarimizning, yigit-qizlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo'lib yetishishi uchun tegishli shart-sharoitlar hali to'la yaratilgani yo'q.

Agarki, biz o'zimizning ma'naviy burchimizni oklashni istasak, ularga otalarcha gamxo'rlik qilishimiz kerak. Ana shu maqsadda biz ularning mamlakatimiz va chet ellardagi nufuzli ilmiy markazlarda ta'lim olishi uchun mablag'lar ajratdik. Bu ishlar uchun hech narsani, shu jumladan, valyutani ham ayamaymiz.

Keyingi paytda san'atda oshkorlikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'lmagur lavhalarni aks ettirish, bema'nilik va hayosizlikni, ba'zan esa, hatto axloqiy buzuvchilikni targ'ib qilishlar ko'payib qoldi.

*Barchamiz - qaerda, qanday lavozimda ishlamaylik, jamiyatimizning insoniylik va axloqiy aqidalarini poymol qiladigan ana shunday tajovuzkorlik ko'rinishlariga qat'iy ravishda qarshi turushimiz lozim. Bunday munosabat jamoatchiligimiz, xalqimizga ham ma'qul bo'ladi, deb ishonaman».*⁷

Ulug'-bobokalonlarimizning SHarq tarbiyasiga musiqa ilmining qay darajada ta'sir etishi haqidagi hikmatli so'zlariga e'tibor qarataylik:

Musiqa shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulkinini tartibga keltiradi. Go'zal ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish, sog'liqqa foydalidir. CHunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi.

Abu Nasr Forobiy

Go'dak tanasidagi a'zolari mustahkamlashda foydali va zarur narsalar - uni asta tebratish hamda allalab aytiladigan kuy va qo'shiqlardir. Biri badanga, biri ruhga tegishli.

Abu Ali ibn

Sino Oshiqlarni talablari jomi sharob,
Ma'shuqaga yetmoq uchun bag'ri kabob
Ruhlarining g'izosidur
changu rubob,

⁷ И.А.Каримов. «Юксак маънавият - енгилмас куч». -Т., «Маънавият». 2008 йил.

Oh cheksa yetti iqlim
vayron qilur.

Xo'ja Ahmad Yassaviy

Xulosa shuki, biz ustoz-murabbiylar yosh avlodga otabobolarimizdan meros bo'lib qolgan milliy musiqaning oxirini to'kmay, yoshlarga yetkazishimiz lozim. SHunday qilaylikki, mustaqil O'zbekiston manfaatlariga xizmat qiluvchi, tilini, dinini, tarixiy madaniyatini, adabiyoti va san'atini yuksak darajada biluvchi, uning quvonchi va tashvishi bilan hamnafas yashashga qodir musiqa o'qituvchilarini voyaga yetishtirib chiqmog'imiz darkor.

2.3. O'quvchilarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirish

Xalqimizning urf-odatlarini, marosimlarini va an'alariga berilayotgan e'tibor, ularni tiklash, saqlash va keyingi avlodga yetkazish yo'lida qilinayotgan sa'y harakatlar Mustaqillik tufayli erishgan yutuqlarimiz bilan bevosita bog'liq. Zero, yurtimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodni eng avvalo milliy an'alar, o'tmishimizga hurmat, tariximiz bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalash masalalariga davlat tomonidan e'tibor berilishi ana shu sohaning mamlakat va millat uchun naqadar muhimligini belgilaydi.

Ta'lim sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan islohotlar musiqiy ta'lim jarayoniga ham jiddiy yondoshmoqlikni, shuningdek, ko'p asrlar davomida shakllangan badiiy merosimizni, an'analarimizni har tomonlama o'rganishni taqozo etmoqda.

Musiqiy asar mazmunini ijrochi tovush, go'zal ovoz orqali talqin qiladi va tinglovchi tomonidan eshitiladi – qabul qilinadi. Bu jarayonda asosiy rolni eshitish, tinglash va tasavvur hal qiladi. Demak, musiqiy eshitish va tasavvursiz san'atga, musiqaga, xususan ijrochilikka oshno bo'lish aslo mumkin emas.

Kasb nuqtai nazaridan musiqiy eshitish ham ikki turga bo'linadi: birinchisi, rivojlanuvchi yoki qiyosiy eshitish qobiliyati sozandaga bir tovushni eshitgandan so'ng boshqalari bilan taqqoslagan holda balandligini aniqlashda yordam beradi. Ikkinchisi, mutlaq (absolyut) eshitish qobiliyati bor sozanda esa tovush balandligini to'g'ridan-to'g'ri boshqalari bilan qiyoslamagan holda aniq ayta oladi. Ya'ni notani ko'rsa yoki tovush nomini eshitgan zahoti sozandaning tasavvurida uning balandligi aniq jaranglaydi.

Ijrochilik tajribasida musiqiy eshitishning boshqa jihatlari ham mavjud bo'lib, ular:

a) tovush tusi (tembr)ni anglash, bunda tovush tembrini ya'ni, erkak yoki ayol ovozi, ma'lum cholg'u asbobi tovushi va boshqalarni eshitish ko'zda tutiladi;

b) ritmik eshitish, bunda usul sezgisi orqali makonda musiqiy harakatni payqash, ya'ni ovozlar bilan uning cho'zimlarini mutanosib holda his qilish;

v) tovush balandligini tinglash;

g) tovushqator va lad asoslarini aniqlash (major, minor, garmonik va boshqalar);

d) dinamik o'zgarishlarni his qilish va hokazo.

Yuqoridagilardan tashqari insonda tashqi(zohiriy) va ichki (botiniy) eshitish xususiyatlari ham mavjud bo'lib, o'quvchi tashqi eshitish orqali yakkaxon sozanda, hofiz, ansanbl yoki orkestr tomonidan ijro qilingan asarni barcha jihatlari: balandligi, tembri, ritmi va musiqiy matnini anglab oladi. Ma'lumki, bunday ustozona uslub sharq xalqlarida juda keng tarqalgan bo'lib, qadimdan otadan bolaga, ustozdan shogirdga ayniqsa, musiqiy meros namunalari og'zaki, ya'ni eshitish-tinglash orqali amalga oshirilgan va bizgacha yetib kelgan. Botiniy (ichki) eshitishda insonning ichki tuyg'usi, ya'ni oldin eshitilgan, tanish bo'lgan hissiyoti ko'zda tutiladi.

Ichki va tashqi eshitish yillar o'tishi bilan bilim, tajriba, malaka oshgani sayin rivojlanib, sayqallanib boradi. Shuning uchun ham ta'limning birinchi davrlaridan boshlab musiqiy eshitishni va eshitish nazoratini rivojlantirish juda muhimdir.

Inson ruhiy jarayonining muhim jihatlardan biri yod olish va xotira bo'lib, uning mohiyati esda saqlab qolish va zarur paytda o'sha xotiralardagilarni ma'lum bir vosita orqali yuzaga chiqarish hisoblanadi. Musiqiy xotira insonda nafaqat ona allasi ohanglari orqali, balki ona qornidaligidanoq shakllanadi. Yengil esda saqlanadigan, qisqa jumlati, jozibador kuy va qo'shiqlar yosh bolaning xotirasida doimo muhrlanib qoladi.

Sozandaga kasbiy faoliyat mobaynida turli musiqiy tuzilma va shakllarni yod olish hamda esda saqlab qolish malakalari

singdiriladi. Bunda kichik kuy jumllaridan tortib to katta turkumli asarlargacha yodda saqlash va uni esdan chiqarmasdan ijro qilish musiqiy xotirani rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Usul sezgisi musiqiy asarlarning tuzilishida eng asosiy omillardan biri bo'lib, ijrochilik jarayonida katta ahamiyatga ega. U inson organizmi bilan tabiatdagi o'zaro o'lchov va ritmik bog'liqlik hamda mutanosiblikni ifodalaydi. Bunda insonning yurak urishi, nafas olishi, qadam tashlashi, hissiy (emotsional) harakat sezgilari tabiatning barcha jihatlari bilan bog'liqdir.

O'quvchilarda ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab usul sezgisini tarbiyalab borish zarur. Bunda berilgan kuyni solfejio usulida hirgoyi qilib kuylash ularda har bir tovush cho'zimi haqida aniq tasavvur hosil qilishga katta zamin yaratadi. Ayniqsa, doyra usullari jo'rligida kuylash yaxshi natija beradi.

O'quvchilarda ijrochilik vazifalari murakkablashib borgani sari usul sezgisi rivojlanib boradi. Natijada, ularda erkin fikrlash, asarni o'zicha erkin talqin qilishga moyillik seziladi. O'quvchining orkestr va ansanbllarda qatnashishi, fortepiano va doyra jo'rligida hamohang bo'lib ijro etishi, yonidagi jo'rnavozni yaqindan his qilishi usul sezgisini shakllantirish va mustahkamlashning eng muhim shartlaridan hisoblanadi.

San'at namoyandalarini salohiyati shuhrati uchun xizmat qiladigan bir nechta omillar mavjud. Shulardan biri repertuar deb yuritiladi. Repertuarni esa xonanda o'z ijro imkoniyatlaridan kelib chiqib, ovozga mos, ruhiyatga xos holda tanlaydi. Bu esa

amaliyotda doim ham go'zal uyg'unlikni topavermaydi. Bunga asosiy sabablardan biri o'z imkoniyatlarini to'laqonli bilmaslikdan kelib chiqsa, ikkinchisi imkoniyatlar doirasida munosib asar tanlay olmaslikda desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarlarning esa ijrochilik jarayonida botiniy hamda zohiriy o'ziga xos muammolari mavjuddir.

O'qituvchining repertuarni to'g'ri tanlay bilishi ta'lim-tarbiyada katta rol o'ynaydi. Repertuar tanlashda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, uning xohishi, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda qadimgi ustozona o'rgatish yo'llari va hozirgi zamon ilg'or metodologiyasiga asoslangan turli uslublarni qo'llashi ishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Repertuar ijrochining ko'zgusi va ijodiy kamolotining, shuningdek, ijrochilik madaniyatining mezoni hisoblanadi. U sozandaning ijrochilik madaniyatini yuksaltirish, ijrochi va tinglovchilarni g'oyaviy, ma'naviy-estetik jihatdan tarbiyalashda ham muhim rol o'ynaydi.

Repertuar tanlashda quyidagi beshta shartga amal qilish talab qilinadi:

- 1.Asarning g'oyaviyligi, badiiy yuksakligi.
- 2.Tanlangan asar o'quvchining ijro mahoratiga mos kelishi.
- 3.Repertuarni oddiydan murakkabga o'tib borish bo'yicha tanlash.
- 4.Asarning mavzu jihatdan turlicha bo'lishi.
- 5.Tanlangan asarning konsertlarda ijro qilinishi mumkinligini hisobga olish.

To'g'ri tanlangan repertuar o'quv-tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir etishi bilan birga o'quvchining musiqiy-nazariy bilimini, ijrochilik malakalarini va badiiy didini oshirib boradi. Shuning uchun o'qituvchi repertuar ustida doimiy ish olib borishi va badiiy jihatdan yuksak asarlar izlashi maqsadga muvofiqdir.

2.4. Musiqa mashg'ulotlarida o'zbek xalq cholg'ulari bilan dars o'tish uslublari

O'qituvchi sinfga yoki musiqa xonasiga kirib kelgandan so'ng to'garak a'zolari bilan salomlashib, so'rashib olgach, jo'nalga o'quvchilarning ya'ni g'ijjakchi sozandalar darsga kirganligi haqida yo'qlama joyiga belgilab qo'yadi. So'ngra cholg'u asboblarini jo'rlashga, ya'ni fortepiano cholg'usining «**lya**» tovushini eshitib, cholg'ularni shu notaga qarab sozlab oladilar va ijro etishga tayyor ekanligi aniqlanadi.

O'quvchilar ijro malakalarini oshirish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda barmoqlar harakati mashqlarini sekin – asta ijro eta boshlaydi. Barmoqlar harakati ya'ni o'ng va chap qo'l mutanosibligi sezilgandan so'ng, ansambl a'zolari berilgan gammalar (tovushqator) ijrosiga o'tadilar . DO major, RE major, MI major va ularning parallel minorlarini har – xil usul va uslublarda

ijro etib berishi nazarda tutiladi. SHundan so'ng har – xil murakkablikdagi etyudlar ijrosiga o'tiladi.

SHu narsani ta'kidlab o'tish joizki, cholg'uchilar ansambliga berilgan badiiy asarlarda uchraydigan usul (shtrixlar) ni rivojlantirish uchun etyud va mashqlar tanlanadi. Mashqlar ham ma'lum bir tizimda berilishi kerak.

Asosan texnikaviy mashqlar va etyudlarni ijro etish, bu o'z navbatida ansambning badiiy ijro mahoratini oshirishga zamin yaratadi. CHolg'uchilar dastasida malakaviy hamda badiiy ijro mahoratini oshirish va ularni rivojlantirishni o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan ularning ro'hiy holatiga ham bog'liqdir.

Texnik malaka va ko'nikmalar hosil bo'lgandan keyingina cholg'uchilarga badiiy ijro etish uchun ularning imkoniyatlariga mos keladigan oddiy kichik musiqiy asarlardan tanlab berish lozim.

O'qituvchi, rahbar cholg'u asbobini qo'lga olib o'zi avval ijro etib, kuyning badiiyligini ko'rsatsa, uning mohiyatini tushuntirib bergandan so'ng, dasta qatnashchilari shu kuyni eshitib cholg'uda ohangini topib ijro etishga harakat qiladilar.

Bu uslub o'quvchilarning, ya'ni dasta qatnashchilarining eshitib uni xotirada qoldirib chalish qobiliyatini rivojlantiribgina qolmay, balki, ularning musiqiy qobiliyatini tarbiyalashga, umuman badiiy ijroga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashqlarni oddiydan murakkabga erishish tamoyili sifatida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisolanadi.

O'quv mashqlarini o'zlashtira borgan sari , cholg'ularda ijro sur'ati tezlashib boradi, sababi, ilgari o'zlashtirilgan malaka va ko'nikmalar shu tariqa rivojlanib hamda mustahkamlanadi. Bajariladigan ishni aniq tushungan o'quvchilar har bir muayyan holatda nima qilishni va nimalarga erishishni hamda ularni qanday yo'l bilan amalga oshirishni biladigan bo'ladilar.

Buning natijasida diqqat – e'tiborni jamlab, fikrni bir yerga to'plab, ishlash ko'nikmasi paydo bo'la boshlaydi. SHu bilan birga gamma va mashqlarni ijro etayotgan vaqtda, notalarni sanab chalish va ularni nomlarini aytib, ijro etish , ko'rganini eslab qolish qobiliyatini oshiradi. O'quvchilarda xotiraning rivojlantirishga va shu notalarni baland – pastlik darajasini tez anglab olishga yordam beradi.

O'quvchilar albatta uyga berilgan vazifani, musiqa asarlarini sekin – asta ijro etadi, Berilgan badiiy asarni ma'lum qismini ijro etish vaqtida, avval uni sust tempda chalib berishi maqsadga muvofiqdir, chunki, tez sur'atda ijro etilgan asarda ko'p xatoliklar borligi ko'zga tashlanadi.

Uy vazifasi dasta qatnashchilari uchun qancha tushunarli bo'lsa, ijroning bajarilishi ham shuncha osonlashadi. Uy vazifasini cholg'uchilar ijro etib ko'rsatib chalayotgan vaqtda bir oz adashib chalishi mumkin, lekin o'qituvchi tinglayotgan paytida musiqiy asar qanchalik chala bo'lmasin, kuyni chalishdan to'xtatmasdan, asarni oxirigacha eshitishi zarur. Darsni birdaniga xatolarni tuzatishdan boshlab, ha deb ularni to'xtat deb qistovga olsa, ularning badiiy ijrochilik irodasini va ijodiy tafakkurini so'ndirishi mumkin.

Musiqiy badiiy asarlar ustida ishlayotgan davrda, cholg'uchilar dastasiga musiqa rahbari asta – sekinlik bilan har – xil milliy bezaklarimizdan o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Agar ularga birinchi sinf paytidan boshlab melizmlarni tushuntirib borilsa, ijrochi yuqori bosqichga qadar ancha yutuqlarga erishishi mumkin.

SHuning uchun birinchi mashg'ulot darsdan boshlab, so'hbat orqali va o'qituvchining ijrosi misolida o'quvchi – o'quvchiga milliy bezaklarimizdan *NOLA, MOLISH, KASHISH, BIDRATMA, TRELL* singari bir qancha melizmlarni oson tushuntirilib, badiiy ijroda qanday sadolanishini cholg'uda ko'rsatib berish zarur.

Bundan tashqari o'zbek xalq kuylarida uchraydigan **zarblar** to'g'risida axborot berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oddiy **yakka zarb** , **qo'sh zarb**, **teskari usul**, **ufor usuli**, **pirrang**, **rez**, **liga** va **ligato** kabi **usullarni** o'quvchi ongiga singdirib borish kerak.

Musiqa asari ustida ishlashning natijasi va uning yakuni – bu tomoshabin yoki eshituvchilar oldida badiiy ijro etib berishdir. Kichik hajmda bo'lgan asar «Yallama yorim» asarini misol qilib olsak:

Agar cholg'uchilar shu asarni oddiy usullar bilan chalsa , undagi malaka va ko'nikmalar yetarli darajada emasligi ko'zga tashlanadi, aksincha, ular ijroda milliy bezaklardan foydalangan holda oddiy **nola**, va **qo'sh nota** yoki **trellardan** unumli foydalanib, dinamik tuslarni mohirona ishlatishga erishsa, unda eshituvchi bevosita cholg'uchilar dastasining badiiy ijrosiga qoyil

qoladi, yoki boshqacha qilib aytganda biror bir nazoratdan ijobiy baho olishga muvassar bo'ladi.

To'garak qatnashchilariga yangi mavzuni tushuntirishda yoki badiiy asarning qolgan ma'lum bir qismini tahlil qilishda, o'qituvchi didaktik printsiplarga rioya qilgan holda , ularga bilishi zarur bo'lgan ko'rsatmalarni beradi.

Ya'ni musiqiy asarni ma'lum bir qismini o'qituvchi cholg'u asbobi vositasida og'ir tempda ijro etib, ko'rsatib berishi kerak. cholg'uchilarda shu kichik fraza to'g'risida ma'lumot paydo bo'la boshlaydi. So'ngra ular ya'ni o'quvchilar shu jumlani (frazani) uyda mustaqil o'zlashtirishga kirishadi.

Badiiy ijro ustida ishlash jarayonining bosqichlari quyidagilardan iborat:

- a) o'qituvchi bilan birgalikda asar tanlash,
- b) birgalikda asarni tahlil qilish,
- v) asar muallifi to'g'risida axborot olish,
- g) asarning maqsad va vazifasi to'g'risida,
- d) asarning shakli va turlarini bilish,
- ye) ma'noli va ifodali ijroning yo'l – yo'riqlari,
- k) asarning texnik qiyinchiliklarini engish mashqlari.
- l) dinamika va temp ustida ishlash mashqlari,
- m) jo'rnavoz bilan ansamblni shakllantirish.

Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarni hammasini bajargandan so'ng cholg'uchilar dastasida badiiy ijroga bo'lgan tasavvur

kuchayadi. CHolg'uchi sozandarda ijro mahoratini oshirish to'g'risida bo'lgan fikrlar yanada kengayib, uslubiy mashqlar, gamma va etyudlar hamda badiiy ijro etishda o'zi ko'zlagan maqsadga erisha olish istagi rivojlanganini seza boshlaydilar.

SHu uslub orqali cholg'uchilar o'zi uyda mustaqil dars tayyorlashni maqsad qilib oladi. Mana shu uslublarni keyingi darsga o'qituvchi uyga vazifa qilib, cholg'u asboblari vositasida badiiylik bilan ijro etib ko'rsatib berishligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv mashqlarini o'zlashtira borgan sari , cholg'ularda ijro sur'ati tezlashib boradi, sababi, ilgari o'zlashtirilgan malaka va ko'nikmalar shu tariqa rivojlanib hamda ijro badiiyliги mustahkamlanadi. Bajariladigan ishni aniq tushungan o'quvchilar har bir muayyan holatda nima qilishini va nimalarga erishishni hamda ularni qanday yo'l bilan amalga oshirishni biladigan bo'ladilar.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari qilib ta'limning ijtimoiylashuvi – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va

ijodiy fikrlashni shakllantirish zarurligi alohida takidlab o‘tilgan. Bu esa, o‘z navbatida barkamol insonning kamol topishida hamda estetik ta’lim-tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirishadi. Estetik ta’lim- tarbiya –badiiy jihatdan takomillashgan, ijodiy tomondan sermahsul, ijtimoiy- siyosiy hayotda faol shaxslarni shakllantirish demakdir. Bu tarbiya milliy g‘oya ruhida, bunyodkorlik hissi bilan kamol topgan inson ongi va tafakkurining tarkibiy qismidir. Bu tarbiya-insonparvarlik, vatanparvarlik mazmuniga ega yuksak estetik ideallarga, uyg‘unlik va go‘zallik talablariga mos keladigan estetik baholash hamda nafosat qonunlari asosida voqelikni qayta qurishga qaratilgan ta’lim –tarbiya sohasidir.

Estetik tarbiya antik davrlardayoq tarbiyaning barcha ko‘rinishlarini ijodiy-badiiy asos bilan boyitadigan omil deb hisoblangan. Qadimgi Yunonistonda estetik tarbiyaning maqsadi fuqorolarni har tomonlama rivojlantirib, “ruh va tana” uyg‘unligini qaror toptirishga qaratilgan edi. Pifagor va Aflotunning qadimgi maktablarida inson tafakkurini ijod orqali, estetik tamoyillar vositasida rivojlantirish usullaridan keng foydalanilgan. Estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lmish tasviriy san’at, musiqa bilan shug‘ullanish fikrni jamlay olish, diqqat e’tiborni bir narsaga qarata olish, ijod qilish qobiliyatini o‘stirishi o‘sha davrlardayoq ma’lum bo‘lgan.

Hozirgi davrga kelib, yangi ilmiy g‘oyalarni ishlab chiqishning sifat jihatdan yuqori pog‘onasiga ko‘tarish uchun, jahon talablari darajasidagi g‘oyalarni kashf etish va ro‘yobga chiqarish uchun inson ongini har tomonlama o‘stirish talab qilinadi. Buning uchun

yosh avlodda bir qarashda, hatto kutilmagan fikr yoki g'oyani sig'dira olishga qodir bo'lgan keng qamrovli ongni shakllantirib borish zarur. Estetik ong va did, estetik ideal va estetik his tuyg'ular, ma'lum badiiy ko'nikma va ijodiy faoliyat - bularning barchasini shakllantirish masalalari estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari doirasiga kiradi.

Estetik tarbiya keng qamrovli bo'lib, yoshlarning axloqiy, mehnat tarbiyalariga ham o'z tasirini ko'rsatadi. Uning axloqiy tarbiyaga ta'siri shundaki, nafosat olami ezgulik va bag'rikenglik, odob-axloq qonunlarisiz o'zining mukammalligini namoyon qila olmaydi. Insonning muayyan ijobiy faoliyati ham ezgulik, ham nafosat xususiyatlarini ham o'zida mujassam etadi.

Yosh avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llari va usullarini ishlab chiqish musiqa darslari sifatini oshiradi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi, erkin shaxsni shakllantirishga olib keladi. O'zining qadr qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi".⁸

Suqrot, Farobiy kabi Sharqning buyuk faylasuflari axloqiylikni insonning ichki go'zalligi, nafosatni esa tashqi go'zalligi deb talqin qilganliklari bejiz emas. Odob-axloq qoidalariga rioya qilgan inson

⁸ I.Karimov. "Barkamol avlod orzusi". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T. 2000 yil, 107- bet.

atrofdagilarga oʻrnak boʻladi, oʻz xulqida goʻzallikni mujassamlaydi.

Goʻzallik estetik ehtiyojlar darajasiga koʻtarilar ekan, u barcha boshqa maʼnaviy va moddiy ehtiyojlarga ham oʻz tasirini oʻtkazib boradi, oʻz navbatida, aynan estetik ehtiyoj boshqa maʼnaviy, moddiy ehtiyojlarga qaraganda koʻproq yaratish, ijod qilish zaruratini paydo qiladi.

Bu jarayon estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan ham chambarchas bogʻliqligini ifodalaydi.

Mehnatga ijodiy yondashish, faqatgina qilingan yangilik yoki oʻylab topilgan yangi texnologiya bilan emas, balki butun mehnat jarayonining samaradorligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati bilan ham belgilanadi. Insonparvar demokratik jamiyat sharoitida fuqarolarning mehnatga ijodiy yondashishlari asosida shaxsiy va jamoa manfaatlarini chuqur anglash, oʻz mehnatining ijtimoiy mohiyatini tushunish yotadi. Qolaversa, bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqqanda ham, sifatli mahsulotlar ham raqobat bardosh boʻlish bilan birga, oʻzlarida ikkita asosni - foyda va goʻzallikni uygʻunlashtirishi zarur boʻlib bormoqda. Mehnatga ijodiy yondashuv tufayli inson faoliyatining qadr-qimmatini tushunib yetadi, oʻz mehnatidan mamnun boʻladi. Ana shunda mehnat sogʻlom inson tanasining tabiiy ehtiyojiga aylanadi. Abu Nasr Farobiy aytganidek: “Goʻzallikni his qilish, goʻzallikdan bahramand boʻlish, eng asosiysi esa kishing oʻzi goʻzallik yarata olishi uni baxtli hayot qurishga yetaklovchi omillardan biri hisoblanadi.

Go‘zallikni his qilish va undan bahramand bo‘lishning o‘zi insoniylik uchun yetarli emas, inson uni yarata olishi ham kerak”.

Hozirgi kunga kelib jamiyatning barcha jabhalarida globallashuv jarayonining jadal sur‘atlar bilan borishi ommaviy axborot vositalari, xususan televideniye, radio va internet tarmog‘ining kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qolganligi estetik ta’lim –tarbiyani g‘oyaviy tarbiya bilan ham yanada uzviy bog‘lanayotganligini ko‘rsatadi. G‘oyaviy tarbiya sust bo‘lgan yoki to‘g‘ri yuritilmaganda g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lib, uning o‘rnini shu xalqning tabiatiga yod g‘oyalar egallab olishi va turli mafkuraviy tazyiqlar o‘z ta’sirini o‘tkazishi muqarrar. Bunday holatga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida faoliyat yuritadigan estetik ta’lim tarbiya yoshlarni milliylikka zid bo‘lmagan estetik ideal timsolida, yuksak estetik didli qilib shakllantirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Estetik –ta’lim tarbiya mahsuli bo‘lmish estetik did orqali inson o‘zligini namoyon qilar ekan , o‘z navbatida shaxsiy buyumlari, kiyim –kechak, uy-joy va faoliyatining barcha samaralari inson didining darajasini aks ettirib beradi. Estetik did har bir odamning hissiy- emotsional tomonlari bilan aqliy-intellektual tomonlarining uyg‘unlashuvi natijasida shakllanib, axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa qarashlariga qaraganda ko‘proq g‘oyaviy-mafkuraviy va ijtimoiy- siyosiy befarqligini ham keltirib chiqarishi mumkin. Aksincha, to‘g‘ri rivojlantirilgan did esa, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ham xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan “usti yaltiroq, ichi qaltiroq”

mahsulotlar, saviyasi past san'at asarlari, mentalitetimizga begona bo'lgan turmush tarzi va fikr mulohazalari orqali pinhona o'tkaziladigan g'oyaviy ta'sirlarga qat'iy tura olishni o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni estetik tarbiyalashda uning bilim va ko'nikmalarini oddiydan murakkab tomon yo'naltirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirib, ta'lim-tarbiya sohalarining barchasi bilan aloqadorlikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Musiqiy-estetik tarbiyaning samarali olib borilishida o'quvchilar ongiga barcha muqaddas tuyg'ularni - ona Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga sadoqat, millatlararo do'stlikka munosabatni saqlash, barcha mehnatkashlarning va shu qatori barcha musiqa mutaxassislarining mehnatini qadrlash, halol mehnatga va ma'lum bir kasbni egallashga intilish, ota-ona, qarindosh-urug', muallim va sinfdoshlarga bo'lgan hurmat hislarini singdirish imkoniyatini beradi. Ularning hayotdagi o'z o'rnini belgilab olishi va o'quvchilik, farzandlik hamda umuman insoniylik burchlarini halol o'tashga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashga yordam beradi. Zero yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda manaviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha- qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. I.A.Karimov. Ma’naviyat nashriyoti- 2008 yil-20 b.
2. “O`zbek xalq musiqasi”. Yunus Rajabiy 2-3 tomlar.
3. “Havaskorlik ashula va raqs ansambllari bilan ishlash usullari”. R.Tursunov. Toshkent 1991yil. 32.b
4. “O`zbek xalq musiqasi”. H.Nurmatov. Toshkent-1996 yil
5. “Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti”. R.Tursunov. Toshkent-2002 yil 33. b
6. “O`zbek xalq cholg`ularida ijrochilik tarixi”.A.Odilov.Toshkent-1995y 44 b
7. “Maqomot”. O.Matyoqubov. Toshkent -2004 yil 36. b
8. A.Hasanov “Musika va tarbiya” Toshkent-1993 yil. 28 bet.
9. M.A.Nurmatova “Musika o`qitish metodikasi va maktab repertuari” fani bo`yicha ma`ruzalar matni. Ur. 2007 yil 29 b.
10. S.I.Musabekov “Musika tarbiyasi”. Toshkent-1973 yil 40 b.
11. I.K.Hasanov “Musika va tarbiya”. Toshkent 1993 yil 25 b.
12. Q.M.Mamirov “Musika ta`limi va ma`naviyati”. Toshkent 1998 yil
13. O.Fayziyev va boshqalar “O`zbekiston maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish bo`yicha metodik qo`llanma”.Toshkent 1992.
14. J.Majidov, R.Rajabov “Maktabda musika ta`limi samaradorligini oshirishning didaktik asoslari”. Toshkent-1990 yil. 70 b.
15. G.Sharipova “Musika o`qitish metodikasi” ma`ruzalar matni. Toshkent- 2000 yil 28 b.
16. A.Odilov “O`zbek xalq cholg`ularining ijrochilik tarixi”.Toshkent-1993yil 100 b.
17. D.Omonullayev, Y.Botirov. Davlat ta`lim standartiga “Sharq musika madaniyati”. Ta`limning maqsad va vazifalari.
18. F.K.Jo`rayev “Bolalar ansambllarining repertuari va uni tashkillashtirish yo`llari”. Toshkent-1985 yil 100 bet.
19. I. Rajabov. Maqom asoslari (ma`ruzalar matni). T. 1992. 67 b.
20. F. Xidirov. Folklor ansambli. T. 1993. 24 b.
21. X. Nurmatov. Rubob darsligi. T. 1993. 45 b
22. O. Ibroximov. O`zbek xalq musika ijodi (metodik tavsiyalar).T. 1994 20 b.
23. K. Usmonov. Boshlang`ich rubob darsligi (2- nashr). T. 1995. 40 b
24. A. Odilov. O`zbek xalq cholg`u ijrochiligi tarixi. T. 1995. 87 b
25. Sh. Janaydarov,X. Nurmatov Cholg`uchilar ansambliToshkent-2002 y.98. b
26. X. Nurmatov O`zbek xalq musiqasi oshkent «O`qituvchi» 1996 y. 87 bet.
27. X. Nurmatov, O. Nazarov, Sh. Janaydarov – Cholg`uchilar ansambli.Bilim nashriyoti. 47 b

28. R. Xamzaqulov. Rubob taronalari Samarqand 2003 y 76 b
29. X. Nurmatov rubob darsligi. Toshkent o`qituvchi 1993 y. 56 b
30. X. Nurmatov Qashqar rubobi. Toshkent 2003 y 88 b
31. O`zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi. Rubob navolari. Toshkent 1993 y. 55 b
32. R. Qosimov An'anaviy rubob ijrochiligi. O`zbekiston 2000 y 90 b
33. O.Fayziyev, B.Umrzoqov-Rubob taronalari, G.Gulom nashriyoti T-2003.66 b.
34. O.Fayziyev, O`Mirzayev-Rubob navolari. Toshkent-2000 yil. 56 b
35. [www: Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
36. www: edu.uz
37. [www: tdpu.uz.](http://www: tdpu.uz)